

Davlat test markazi huzurida ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiya qilish tartibi

DTM huzurida ommaviy axborot vositalari vakillarini (muxbirini) akkreditatsiya qilish uchun ommaviy axborot vositasi (OAV) tahririysi o‘zining rasmiy blankasida bosh muharririning imzosi qo‘yilgan, muhr bilan tasdiqlangan buyurtmanoma taqdim etadi.

Tahririyatning buyurtmanomasida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

ommaviy axborot vositasining nomi va turi;

ixtisoslashuvi;

tarqalish hududi;

elektron pochta manzili;

tahririyatning telefonlari va fakslari raqamlari;

akkreditatsiyaga taqdim etilgan muxbirning familiyasi, ismi va otasining ismi, elektron pochta manzili, telefon va faks raqami hamda pasportiga oid ma'lumotlar;

kasb vazifalarini bajarish uchun ushbu muxbir o‘zi bilan birga olib yurishi zarur bo‘lgan apparatlar ro‘yxati.

Buyurtmanomaga OAV davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi, ko‘rsatuv (eshittirish) olib borish uchun (elektron OAVga) berilgan litsenziya nusxasi hamda muxbirning pasporti va diplomi nusxalari ilova qilinadi.

Muxbirni akkreditatsiya qilish to‘g‘risidagi buyurtmanoma DTM tomonidan tegishli murojaat olingan kundan boshlab bir oy mobaynida ko‘rib chiqiladi.

Akkreditatsiya uchun buyurtmanoma asl nusxada qabul qilinadi. Mazkur Nizomning 8-bandida qayd etilgan ma'lumotlar ko‘rsatilmagan buyurtmanomalar ko‘rib chiqilmaydi va egasiga qaytarilmaydi.

Akkreditatsiya qilinadigan muxbirlar soni tahririyat tomonidan DTM bilan birgalikda belgilanadi.

Akkreditatsiya tartiboti quyidagi asosiy tadbirlardan iborat bo‘ladi:

buyurtmanomani va taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish;

muxbirlarni attestatsiyadan o‘tkazish;

akkreditatsiya qilish to‘g‘risida yoki akkreditatsiya qilishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish, akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani rasmiylashtirish va berish.

OAV tahririysi tomonidan taqdim etilgan buyurtmanomalar va hujjatlarni ko‘rib chiqishni DTMda tuziladigan ekspert guruhi amalga oshiradi. Hujjatlarni ko‘rib chiqish natijalari ariza tushgan paytdan boshlab o‘n kun muddatda ekspert xulosasi bilan rasmiylashtiriladi.

Attestatsiyani DTM tomonidan rasmiy ravishda tuziladigan komissiya o‘tkazadi. Komissiya tarkibi va attestatsiyani o‘tkazish muddatlari tahririyat bilan kelishiladi. Tahririyat komissiyaning ayrim a’zolari ishtirok etishi va attestatsiya o‘tkazilishi muddatlari yuzasidan e’tiroz sabablarini asoslagan holda taklif bildirishga haqlidir.

Komissiya attestatsiyani DTM tasdiqlagan dasturga muvofiq o‘tkazadi. Muxbirning kasbiy sifatlari va layoqatini tavsiflash bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi ekspert xulosasi, shuningdek ekspertiza va attestatsiya jarayonida olingan boshqa axborotlar attestatsiya komissiyasining qaror

qabul qilishi uchun asos hisoblanadi. Attestatsiya natijalari attestatsiya dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

DTM attestatsiya dalolatnomasini ko'rib chiqish natijalari asosida muxbirni akkreditatsiya qilish yoki akkreditatsiya qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ijobiy qaror chiqarilgan taqdirda DTM qaror qabul qilingandan keyin bir hafta muddatda belgilangan shaklda bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositasi muxbirini akkreditatsiya qilish to'g'risidagi guvohnomani rasmiylashtiradi va beradi.

DTM akkreditatsiya qilingan muxbirga ikki yilgacha muddatda amal qiladigan akkreditatsiya to'g'risida guvohnoma beradi.

Akkreditatsiya qilish to'g'risidagi guvohnoma DTM reestrida ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab amal qiladi.

Akkreditatsiyaga taalluqli barcha hujjatlar (buyurtmanomalar, qarorlar, dalolatnomalar, akkreditatsiya qilish to'g'risidagi guvohnoma va shu kabilar) davlat tilida rasmiylashtiriladi.

DTM O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari yoki mazkur Nizom asosida jurnalistni akkreditatsiya qilishni rad etishi mumkin. DTM bunday qarorning sabablari to'g'risida uch kun muddatda ommaviy axborot vositasi tahririyatini yozma shaklda xabardor qiladi.

Akkreditatsiya qilingan muxbirlar kasb faoliyati davrida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadilar va majburiyatlarni bajaradilar.

DTM muxbirni majlislar, kengashlar va boshqa tadbirlar to'g'risida oldindan xabardor qiladi, stenogrammalar, protokollar va boshqa hujjatlar bilan ta'minlaydi.

Akkreditatsiya muxbirning rasmiy shaxslar tashriflari davridagi tadbirlarda bevosita qatnashishini kafolatlamaydi. O'zbekiston Respublikasining yoki xorijiy davlatlarning rasmiy shaxslari tashriflari vaqtida muxbirlarni maxsus akkreditatsiya qilish tartibi qonun hujjatlari, shuningdek ushbu tadbirni tayyorlash va o'tkazish uchun mas'ul xizmatlar talablariga binoan belgilanadi.

DTMdakka akkreditatsiya qilingan muxbir quyidagi huquqlarga ega:

bo'lajak majlislar, kengashlar va boshqa tadbirlar to'g'risida oldindan axborot olish;

DTMning binolari (xonalari) va ob'ektlariga tegishli guvohnoma (ruxsatnoma) asosida, DTM tomonidan belgilangan tartibda kirish;

DTM tomonidan o'tkaziladigan majlislar, yig'ilishlar, brifinglar (matbuot konferensiyalari) va boshqa tadbirlarda qatnashish, yopiq tadbir o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilingan hollar bundan mustasno;

DTMning mas'ul shaxslaridan zarur hujjatlar va materiallarni so'rash va olish, kirish erkin bo'lgan tadbirlarning yozuvlari bilan tanishish va ularidan nusxa olish;

yozuvlardan, matnli materiallar tayyorlashda, akkreditatsiya qilingan ommaviy axborot vositalarining tele-, radiodasturlarida foydalanish;

audio-, video- yoki kinosuratga olish, ovoz yozish uchun zarur bo'lgan texnik apparatlardan, shuningdek kompyuter texnikasi vositalaridan faqat DTMning faoliyatini yoritish maqsadlarida foydalanish.

23. DTMda akkreditatsiya qilingan muxbir quyidagilarga majbur:

DTMning binosida bo‘lganda uning ichki tartib-qoidalariga va ishlarini tashkil etish talablariga rioya qilish;

o‘zi ishtirok etayotgan tadbirlarning o‘tkazilishiga aralashmaslik (agar tadbir matbuot uchun maxsus tashkil etilmagan bo‘lsa);

DTMning faoliyati to‘g‘risida xolisona axborot berish;

maxsus tadbirlarni o‘tkazish qoidalariga rioya qilish;

davlat hokimiyati organlarining faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa talablarni bajarish.

Quyidagilar akkreditatsiyaning to‘xtatilishi uchun asos hisoblanadi:

muxbirning tahririyatdan ishdan bo‘shatilishi (ushbu holda tahririyat boshqa vakilni akkreditatsiya qilish to‘g‘risidagi ariza bilan DTMga murojaat qilishga haqlidir);

muxbir vakili bo‘lgan ommaviy axborot vositasi faoliyatining to‘xtatilishi;

tahririyat rahbariyati tomonidan muxbirni akkreditatsiya qilgan organning faoliyatini yoritishdan chetlatish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi (rasmiy ma'lumot asosida).

Muxbir:

o‘zi taklif etilgan tadbirlar o‘tkazilishi tartibiga aralashganda;

amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Nizomda belgilangan tartiblarni muntazam ravishda buzganda akkreditatsiyadan mahrum etiladi.

Muxbirni akkreditatsiyadan mahrum etish to‘g‘risidagi qaror DTM tomonidan qabul qilinadi. Qaror yozma shaklda rasmiylashtirilgan, OAV to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan dalillangan bo‘lishi kerak.

DTM akkreditatsiyadan mahrum qilingan muxbirning tahririyatiga qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab besh kun muddatdan kechikmay rasmiy ma'lumot yuboradi. Bunday qaror kuchga kirgan vaqtdan boshlab akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma haqiqiy emas deb hisoblanadi va u OAV tahririyati tomonidan DTMga qaytarilishi shart.

Akkreditatsiya qilingan muxbirni yangi muddatga akkreditatsiya qilish akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddati tugagandan keyin OAV tahririyati tomonidan taqdim etilgan buyurtmanoma asosida o‘tkaziladi.

OAV tahririyati akkreditatsiya qiluvchi organga akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin buyurtmanoma berishi lozim.

Yangi muddatga akkreditatsiya qilish akkreditatsiya qilingan muxbirning oldingi akkreditatsiyasi davridagi benuqson faoliyatini hisobga olgan holda soddalashtirilgan tartibot bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

Tarjimonlar, teleoperatorlar, fotomuxbirlar, tele-, kino- va videoapparatlarga, aloqa vositalariga xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislar tahririyatning muxbirlarga biriktirilgan texnik xodimlari bo‘lishi mumkin.

Akkreditatsiya qilingan muxbirlar texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni ishga yollashi mumkin.

Jalb etiladigan texnik xodimlarning shaxsiy tarkibi DTM bilan kelishiladi. Ularga o‘z faoliyatini amalga oshirishlari uchun DTM tomonidan tegishli guvohnoma beriladi.

Давлат тест маркази ҳузурида оммавий ахборот воситалари вакилларини аккредитация қилиш тартиби

ДТМ ҳузурида оммавий ахборот воситалари вакилларини (мухбирини) аккредитация қилиш учун оммавий ахборот воситаси (ОАВ) таҳририяти ўзининг расмий бланкасида бош муҳаррирининг имзоси қўйилган, муҳр билан тасдиқланган буюртманома тақдим этади.

Таҳририятнинг буюртманомасида қўйидагилар кўрсатилиши керак:

- оммавий ахборот воситасининг номи ва тури;
- ихтисослашуви;
- тарқалиш ҳудуди;
- электрон почта манзили;
- таҳририятнинг телефонлари ва факслари рақамлари;
- аккредитацияга тақдим этилган муҳбирнинг фамилияси, исми ва отасининг исми, электрон почта манзили, телефон ва факс рақами ҳамда паспортига оид маълумотлар;

касб вазифаларини бажариш учун ушбу муҳбир ўзи билан бирга олиб юриши зарур бўлган аппаратлар рўйхати.

Буюртманомага ОАВ давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳноманинг нусхаси, кўрсатув (эшиттириш) олиб бориш учун (электрон ОАВга) берилган лицензия нусхаси ҳамда муҳбирнинг паспорти ва дипломи нусхалари илова қилинади.

Муҳбирни аккредитация қилиш тўғрисидаги буюртманома ДТМ томонидан тегишли мурожаат олинган кундан бошлаб бир ой мобайнида кўриб чиқилади.

Аkkредитация учун буюртманома асл нусхада қабул қилинади. Мазкур Низомнинг 8-бандида қайд этилган маълумотлар кўрсатилмаган буюртманомалар кўриб чиқилмайди ва эгасига қайтарилмайди.

Аkkредитация қилинадиган муҳбирлар сони таҳририят томонидан ДТМ билан биргаликда белгиланади.

Аkkредитация тартиботи қўйидаги асосий тадбирлардан иборат бўлади:

- буюртманомани ва тақдим этилган ҳужжатларни кўриб чиқиш;

- муҳбирларни аттестациядан ўтказиш;

аккредитация қилиш тўғрисида ёки аккредитация қилишни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилиш, аккредитация тўғрисидаги гувоҳномани расмийлаштириш ва бериш.

ОАВ таҳририяти томонидан тақдим этилган буюртманомалар ва ҳужжатларни кўриб чиқиши ДТМда тузиладиган эксперт гурухи амалга оширади. Ҳужжатларни кўриб чиқиш натижалари ариза тушган пайтдан бошлаб ўн кун муддатда эксперт хулосаси билан расмийлаштирилади.

Аттестацияни ДТМ томонидан расмий равишда тузиладиган комиссия ўтказади. Комиссия таркиби ва аттестацияни ўтказиш муддатлари таҳририят билан келишилади. Таҳририят комиссиянинг айрим аъзолари иштирок этиши ва аттестация ўтказилиши муддатлари юзасидан эътиroz сабабларини асослаган ҳолда таклиф билдиришга ҳақлидир.

Комиссия аттестацияни ДТМ тасдиқлаган дастурга мувофиқ ўтказади. Мухбирнинг касбий сифатлари ва лаёқатини тавсифлаш бўйича тақдим этилган ҳужжатларни қўриб чиқиш натижалари тўғрисидаги эксперт хулосаси, шунингдек экспертиза ва аттестация жараёнида олинган бошқа ахборотлар аттестация комиссиясининг қарор қабул қилиши учун асос ҳисобланади. Аттестация натижалари аттестация далолатномаси билан расмийлаштирилади.

ДТМ аттестация далолатномасини қўриб чиқиш натижалари асосида мухбирни аккредитация қилиш ёки аккредитация қилишни рад этиш тўғрисида қарор қабул қиласди.

Ижобий қарор чиқарилган тақдирда ДТМ қарор қабул қилингандан кейин бир ҳафта муддатда белгиланган шаклда бўйича Ўзбекистон Республикаси оммавий ахборот воситаси мухбирини аккредитация қилиш тўғрисидаги гувоҳномани расмийлаштиради ва беради.

ДТМ аккредитация қилинган мухбирга икки йилгача муддатда амал қиласдиган аккредитация тўғрисида гувоҳнома беради.

Аkkредитация қилиш тўғрисидаги гувоҳнома ДТМ реестрида рўйхатдан ўтказилган санадан бошлаб амал қиласди.

Аkkредитацияга тааллукли барча ҳужжатлар (буортманомалар, қарорлар, далолатномалар, аккредитация қилиш тўғрисидаги гувоҳнома ва шу кабилар) давлат тилида расмийлаштирилади.

ДТМ Ўзбекистон Республикасининг тегишли қонунлари ёки мазкур Низом асосида журналистни аккредитация қилишни рад этиши мумкин. ДТМ бундай қарорнинг сабаблари тўғрисида уч кун муддатда оммавий ахборот воситаси таҳририятини ёзма шаклда хабардор қиласди.

Аkkредитация қилинган мухбирлар касб фаолияти даврида Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳукуқлардан фойдаланадилар ва мажбуриятларни бажарадилар.

ДТМ мухбирни мажлислар, кенгашлар ва бошқа тадбирлар тўғрисида олдиндан хабардор қиласди, стенограммалар, протоколлар ва бошқа ҳужжатлар билан таъминлайди.

Аkkредитация мухбирнинг расмий шахслар ташрифлари давридаги тадбирларда бевосита қатнашишини кафолатламайди. Ўзбекистон Республикасининг ёки хорижий давлатларнинг расмий шахслари ташрифлари вақтида мухбирларни маҳсус аккредитация қилиш тартиби қонун ҳужжатлари, шунингдек ушбу тадбирни тайёрлаш ва ўтказиш учун масъул хизматлар талабларига биноан белгиланади.

ДТМда аккредитация қилинган мухбир қўйидаги ҳукуқларга эга:

бўлажак мажлислар, кенгашлар ва бошқа тадбирлар тўғрисида олдиндан ахборот олиш;

ДТМнинг бинолари (хоналари) ва обьектларига тегишли гувоҳнома (руҳсатнома) асосида, ДТМ томонидан белгиланган тартибда кириш;

ДТМ томонидан ўтказиладиган мажлислар, йиғилишлар, брифинглар (матбуот конференциялари) ва бошқа тадбирларда қатнашиш, ёпиқ тадбир ўтказилиши тўғрисида қарор қабул қилинган ҳоллар бундан мустасно;

ДТМнинг масъул шахсларидан зарур ҳужжатлар ва материалларни сўраш ва олиш, кириш эркин бўлган тадбирларнинг ёзувлари билан танишиш ва улардан нусха олиш;

ёзувлардан, матнли материаллар тайёрлашда, аккредитация қилинган оммавий ахборот воситаларининг теле-, радиодастурларида фойдаланиш;

аудио-, видео- ёки киносуратга олиш, овоз ёзиш учун зарур бўлган техник аппаратлардан, шунингдек компьютер техникаси воситаларидан фақат ДТМнинг фаолиятини ёритиш мақсадларида фойдаланиш.

23. ДТМда аккредитация қилинган мухбир қуидагиларга мажбур:

ДТМнинг биносида бўлганда унинг ички тартиб-қоидаларига ва ишларини ташкил этиш талабларига риоя қилиш;

ўзи иштирок этаётган тадбирларнинг ўтказилишига аралашмаслик (агар тадбир матбуот учун маҳсус ташкил этилмаган бўлса);

ДТМнинг фаолияти тўғрисида холисона ахборот бериш;

маҳсус тадбирларни ўтказиш қоидаларига риоя қилиш;

давлат ҳокимияти органларининг фаолиятини оммавий ахборот воситаларида ёритиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа талабларни бажариш.

Куидагилар аккредитациянинг тўхтатилиши учун асос ҳисобланади:

мухбирнинг таҳририятдан ишдан бўшатилиши (ушбу ҳолда таҳририят бошқа вакилни аккредитация қилиш тўғрисидаги ариза билан ДТМга мурожаат қилишга ҳақлидир);

мухбир вакили бўлган оммавий ахборот воситаси фаолиятининг тўхтатилиши;

таҳририят раҳбарияти томонидан мухбирни аккредитация қилган органнинг фаолиятини ёритишдан четлатиш тўғрисида қарор қабул қилиниши (расмий маълумот асосида).

Мухбир:

ўзи таклиф этилган тадбирлар ўтказилиши тартибига аралашганда;

амалдаги қонун ҳужжатлари ва мазкур Низомда белгиланган тартибларни мунтазам равишда бузганда аккредитациядан маҳрум этилади.

Мухбирни аккредитациядан маҳрум этиш тўғрисидаги қарор ДТМ томонидан қабул қилинади. Қарор ёзма шаклда расмийлаштирилган, ОАВ тўғрисидаги қонун ҳужжатлари билан далилланган бўлиши керак.

ДТМ аккредитациядан маҳрум қилинган мухбирнинг таҳририятига қарор қабул қилинган вақтдан бошлаб беш кун муддатдан кечикмай расмий маълумот юборади. Бундай қарор кучга кирган вақтдан бошлаб аккредитация тўғрисидаги гувоҳнома ҳақиқий эмас деб ҳисобланади ва у ОАВ таҳририяти томонидан ДТМга қайтарилиши шарт.

Аkkредитация қилинган мухбирни янги муддатга аккредитация қилиш аккредитация тўғрисидаги гувоҳноманинг амал қилиш муддати тугагандан кейин ОАВ таҳририяти томонидан тақдим этилган буюртманома асосида ўтказилади.

ОАВ таҳририяти аккредитация қилувчи органга аккредитация тўғрисидаги гувоҳноманинг амал қилиш муддати тугашидан бир ой олдин буюртманома бериши лозим.

Янги муддатга аккредитация қилиш аккредитация қилинган мухбирнинг олдинги аккредитацияси давридаги бенуқсон фаолиятини ҳисобга олган ҳолда соддалаштирилган тартибот бўйича амалга оширилиши мумкин.

Таржимонлар, телеоператорлар, фотомухбирлар, телевизорлар, кино- ва видеоаппаратларга, алоқа воситаларига хизмат кўрсатувчи мутахассислар таҳририятнинг мухбирларга биректирилган техник ходимлари бўлиши мумкин.

Аkkредитация қилинган мухбирлар техник ва хизмат кўрсатувчи ходимларни ишга ёллаши мумкин.

Жалб этиладиган техник ходимларнинг шахсий таркиби ДТМ билан келишилади. Уларга ўз фаолиятини амалга оширишлари учун ДТМ томонидан тегишли гувоҳнома берилади.